

**MA'MURIY SUDLARNING FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI
HIMOYA QILISHDAGI O'RNI**

Yangiboyev Norquvat Qulnazarovich

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti o'qituvchisi datsent

Imomova Marjona Ermahmat qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 3-kurs 323-guruh talabasi

Mamataliyeva Barno Rustam qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 3-kurs 323-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19890278>

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sudi bu ma'muriy munosabat subyektlari o'rtasida kelib chiqqan nizolarni hal qiluvchi sud tizmi hisoblanadi. Dastlab 2016-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan PF-4820 "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonida ma'muriy sudlarni tashkil etish to'g'risida ham takidlab o'tgan va 2017-yil 2-choragida O'zbekiston Respublikasida ma'muriy sudlar o'z faoliyatini boshladi.

Kalit so'zlar: Ma'muriy sudlar Fuqarolar huquqlari Inson huquqlari va erkinliklari, Ommaviy huquqiy munosabatlar, Qonun ustuvorligi, Xalqaro tajriba.

«Sudda uchrashamiz!» – rivojlangan huquqiy demokratik davlatlarda bunday so'zlar davlat xizmatchisini jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan harakatlarining to'g'riligi haqida darhol o'ylantirib qo'yadi. Yuzaga kelgan holat yuzasidan yondashuvini o'zgartirmagan taqdirda ham hech bo'lmaganda harakatlari qonunchilikka muvofiqligini tekshirib ko'rishga undaydi. Axir sud zalida u holatni boshqara olmaydi, hech qanday huquqbuzarlikka yo'l qo'ymaganligini odil sudlovga o'zi isbotlab berishi kerak.

Bizning fuqarolarimiz ham buni yaxshi anglagan holda so'nggi vaqtlarda sudda faollik bo'yicha yevropaliklar yoki amerikaliklardan qolishmayapti. Sud ishlari soni ortmoqda, demakki, sud tizimi yangi voqelikka moslashishi lozim. Mamlakatimizda hozirning o'zida amaldorlar bilan sudlashish mumkinuqarolik protsessual kodeksining shuningdek, Iqsodiy protsessual kodeksi o'z manfaatlarini himoya qilish uchun biznes vakillari va oddiy fuqarolar uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bularning bari mansabdor shaxslarning o'zi uchun ham yaxshi. Agar fuqaro qonun bo'yicha haqiqatan ham nohaq bo'lsa, o'z sog'lig'i va asablarini u bilan behuda tortishuvlarga sarflamasdan, sud zalida o'z nuqtai nazarini to'g'ri tushuntirib bersa bo'lgani, halol davlat xizmatchisi sifatida obro'-e'tiborini saqlab qoladi.¹

Garchi davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi nizolarni hal etish bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha sud (*davlat organlari va mansabdor shaxslar harakatlari va qarorlari ustidan fuqarolarning arzlari*) va iqsodiy sudi (*davlat va boshqa organlar hujjatlarini haqiqiy emas deb topish haqidagi arizalar*) to'liq faoliyat olib borayotgan bo'lsa-da, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar borasida ba'zi bir muammolar haligacha saqlanib qolmoqda.

¹ <https://www.norma.uz/>

Shu bilan birga har bir fuqaro uning ishi har tomonlama, to'liq va adolatli hal etilishi huquqiga ega. Shu sababli ham sud tizimida alohida aynan ma'muriy ishlarga ixtisoslashgan yo'nalishni yaratish yuzasidan qaror qabul qilindi.

Uning samarali ishlashi uchun "Ma'muriy sudlov ishlarini yuritish to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish taklif etilmoqda. MJtKda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish tartibi batafsil tartibga solinmaydi (MJtK 306-modda). Shu sababli sudyalarning ko'p holatlarda o'z ichki sezgilariga tayangan holda ish ko'radilar. Bayonnoma tuzgan mansabdor shaxsni sudga chaqirish kerakmi yoki uning ishtirokisiz ham ishni ko'rib chiqarverish mumkinmi? Kim ayblovchi bo'lishi lozim? Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsga nisbatan aybsizlik prezumpsiyasi amal qiladimi yoki yo'qmi? Ishlab chiqilayotgan qonun shu va boshqa ko'pgina savollarga javob bermog'i lozim.

Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, "Ma'muriy sudlov ishlarini yuritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan ehtimol, ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi barcha nizolarni ko'rib chiqish fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va xo'jalik sudlaridan ma'muriy sudlarga o'tkaziladi.

Ma'muriy sud ish yurituvining boshqa har qanday sud ish yurituviga kabi yagona konstitutsiyaviy maqsad va vazifasi bo'lib shaxs va fuqaro huquqlari va erkinliklarini, tashkilotlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Sud ish yurituvlarining barchasida fuqarolar hamda korxona, muassasa, tashkilotlarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilish, qonuniylikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish, shuningdek qonunga va sudga nisbatan hurmatda bo'lish munosabatini shakllantirish vazifasi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni, Ma'muriy sud ish yuritish kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ma'muriy sudlar faoliyatining huquqiy asosini belgilab berdi. Ushbu huquqiy asoslar fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash bilan birga, ularni sud orqali samarali himoya qilish mexanizmlarini ham aniq ko'rsatib beradi. Misol uchun, davlat organining noqonuniy qarori tufayli fuqaroning huquqi buzilgan taqdirda, ma'muriy sud ushbu qarorni haqiqiy emas deb topishi yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bu esa oddiy fuqaro uchun katta kafolatdir.

Ma'muriy sudlarda shu kungacha 446 284 ta ish ko'rilgan ma'muriy sudlar boshqa sud tarmoqlaridan farqli o'laroq ommaviy huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan ishlarni ko'radiligi xalq qarorini qabul qilishda esa moddiy normada aynan farqlar mavjud asosan qarorlar va qonun osti hujjatlari foydalanadi.

Huquqiy jihatdan ma'muriy sudlarning faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Sudlar to'g'risida"gi qonun, Ma'muriy sud ish yuritish kodeksi va boshqa tegishli qonun hujjatlarida belgilab berilgan. Bu hujjatlar fuqarolarning sud orqali himoya huquqini kafolatlaydi, davlat organlarining noqonuniy qarorlarini haqiqiy emas deb topish, mansabdor shaxslarning huquqbuzarliklari ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibini aniq belgilaydi. Shuningdek, "Ma'muriy sud ish yuritish kodeksi"da fuqarolarning davlat organlariga nisbatan shikoyat qilish tartibi, muddatlari, sud ishlarini ko'rib chiqish qoidalari va sud qarorlarini ijro etish mexanizmlari aniq ko'rsatilgan. Bu esa ma'muriy sudlarning qonuniylik va odil sudlovni ta'minlashdagi rolini yanada oshirmoqda. Ma'muriy sudlarning vazifalari bevosita fuqarolarning

huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan boʻlib, ular quyidagi yoʻnalishlarda namoyon boʻladi:

Maʼmuriy sudlarda vakillik ham alohida oʻrin tutadi, fuqarolar va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishda sudlarda oʻz nutqi va yetarlicha dalillari bilan ishtirok etadi xar bir sudda advokat pozitsiyasi maʼmuriy sudlarda vakil pozitsiyasida ishtirok etadi. Sudlarda vakilning ishtiroki bu qonun tilida va FFanni q normalar asosida hukim chiqishi va muammoga adolatli yechim berishini taminlaydi. Fuqarolar sudlarda oʻz manfaatlarini himoya qilishda yetarli bilimlar mavjud boʻlmagani uchun vakillardan foydalanishi bu manfaatdor tarasflarga va sud faoliyatiga yetarlicha koʻmak beradi.

Maʼriy sudlarning boshqa sudlardan yana bir farqi taraflar maʼmuriy sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida va sud hujjatini ijro etish jarayonida nizoni kelishuv bitimini tuzgan holda toʻliq hajmda yoki qisman hal etishi mumkin. Taraflarning kelishuvi ixtiyoriylik, hamkorlik va teng huquqlilik prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Taraflarning kelishuviga faqat javobgarda maʼmuriy ixtiyoriylik (diskretion vakolat) mavjud boʻlganda yoʻl qoʻyiladi. Taraflarning kelishuvi faqat ularning nizoli ommaviy huquqiy munosabatlar subyekt sifatidagi huquq va majburiyatlariga taalluqli boʻlishi hamda taraflarning oʻzaro yon berishiga yoʻl qoʻyilgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin. Kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlanganidan keyin tuzilgan deb hisoblanadi. Kelishuv bitimi bu fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklarni ziddiyatlarini kamaytiradi va harajarlar tejaladi. Kelishuv bitimi yozma shaklda tuziladi va uni tuzgan shaxslar tomonidan imzolanadi.

Kelishuv bitimi albatta ijro etilishga oid talablarga javob berishi hamda unda majburiyatlarni bajarishning taraflar tomonidan kelishilgan shartlari, tartibi va muddatlari haqidagi qoidalar, shuningdek sud xarajatlarini taqsimlash toʻgʻrisidagi shartlar va qonunga zid boʻlmagan boshqa shartlar koʻrsatilishi kerak. Taraflar tomonidan kelishuv bitimi shartlari boʻyicha qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishi taraflarni bir-biriga yoki boshqa voqealarga (harakatlarga) bogʻliq qilib qoʻyishi mumkin emas. Kelishuv bitimi sud xarajatlarini taqsimlash toʻgʻrisidagi masalaga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Agar kelishuv bitimida sud xarajatlarini taqsimlash toʻgʻrisidagi shart mavjud boʻlmasa, sud bu masalani kelishuv bitimini tasdiqlash chogʻida, ushbu Kodeksda belgilangan umumiy tartibda hal etadi. Kelishuv bitimi uni tuzgan shaxslar sonidan bitta nusxa ortiq boʻlgan nusxalarda tuziladi va imzolanadi. Ushbu nusxalardan biri ish materiallariga qoʻshib qoʻyiladi.

Sud kelishuv bitimini tasdiqlashni quyidagi hollarda rad etadi, agar:

- 1) uning shartlari qonunchilikka zid boʻlsa;
- 2) uning shartlari uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor boʻlsa;
- 3) uning shartlari koʻrib chiqilayotgan nizo (ish) predmeti bilan bogʻliq boʻlmasa;
- 4) javobgarda maʼmuriy ixtiyoriylik (diskretion vakolat) mavjud boʻlmasa;
- 5) bitim shart asosida tuzilgan boʻlsa.

Kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etish toʻgʻrisida ajrim chiqariladi. Bunda sud muhokamasi umumiy tartibda oʻtkaziladi.

Kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etish toʻgʻrisidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Shuningdek, xalqaro tajribaga murojaat qilsak, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ma'muriy sudlar demokratik boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida faoliyat yuritadi. Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ma'muriy sudlar davlat va fuqaro o'rtasidagi nizolarni hal etishda samarali mexanizm sifatida tan olingan. O'zbekiston ham ushbu tajribadan kelib chiqib, o'z milliy ma'muriy sud tizimini shakllantirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ma'muriy sudlarning faoliyatini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning inson huquqlarini himoya qilishdagi o'rnini chuqur tahlil qilish juda muhimdir.²

Germaniya ushbu davlat romana-german huquq oilasiga kiruvchi davlat hisoblanadi va Germaniya ma'muriy huquqi mustaqil va o'ta adolatligi jihatdan ajralib turadi. Har bir davlatning o'z qonunchiliklari bo'lganidek Germaniya Federativ Respublikasida ham ma'muriy sudlar uchun qonunchiliklari mavjud. Grundgesetz – Germaniya Federativ Respublikasi asosiy qonuni (konstitutsiya) ya'ni huddi O'zbekiston singari asosiy qonunga zid kelmaydigan tartibda normative huquqiy hujjatlar qabul qilinadi va Grundgesetz bu ma'muriy huquqdagi asosiy manba hisoblanadi. Verwaltungsgesetzordnung (VwGO) – Ma'muriy sud to'g'risidagi qonun bu qonun Germaniya ma'muriy sud tizimini tartibga solish uchun chiqarilgan bo'lib asosiy vazifalaridan biri bu sud tizmi, sudda kim ishtirok etadi, ko'ngilli sudyalari, hakam, sud jarayoni, birinchi instansiya, apelatsiya va qarorni bekor qilish kabi protsessual ishlarni tartib soluvchi hujjat hisoblanadi. Germaniya ma'muriy sudini O'zbekiston ma'muriy sudidan eng katta farqlardan biri bu sudning tuzilish shaklidir ya'ni sud 3 bosqichga bo'linadi:

Germaniyada Federal sudyalarni tayinlash jarayoni Bundestag va adliya vazirligi qo'mitasiorqali tayinlanadi. O'zbekistonda esa Oliy sudyalari kengashi kengashi tomonidan tashdiqlanadi. Germaniyada esa sudyalarning vakolati muddatsiz davrga tayinlanadi, ammo O'zbekistonda esa "Sudya birinchi marta besh yillik muddatga, navbatdagi o'n yillik muddatga va lavozimda bo'lishning muddatsiz davriga belgilangan tartibda saylanadi yoki tayinlanadi."

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy sudlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda zamonaviy huquqiy davlatning muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Ular davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan sud nazoratini ta'minlab, fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklashga xizmat qiladi. Ayniqsa, davlat va fuqaro o'rtasidagi nizolarning mustaqil sud organi tomonidan ko'rib chiqilishi adolat prinsipining amalda ta'minlanishiga olib keladi. O'zbekistonda ma'muriy sudlar tashkil etilishi sud-huquq tizimini isloh qilish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Bu tizim orqali fuqarolarga davlat organlarining noqonuniy qarorlariga nisbatan sudga murojaat qilish imkoniyati kengaytirildi. Natijada, qonun ustuvorligi mustahkamlanib, davlat organlarining javobgarligi oshmoqda. Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud bo'lib, xususan, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqishda protsessual tartiblarning yetarli darajada aniq belgilanmagani, sudlarning ish yuklamasi yuqoriligi va ayrim hollarda dalillarni baholashdagi subyektiv yondashuvlar kuzatilmoqda. Bu esa tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarda ma'muriy sudlar samarali va mustaqil faoliyat yuritadi hamda inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston uchun ham ushbu tajribalarni o'rganish va milliy tizimga moslashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Umuman olganda, ma'muriy

² Karimova, M. Inson huquqlarini sud orqali himoya qilish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019

sudlar faoliyatini rivojlantirish, ularning protsessual asoslarini yanada takomillashtirish va sud mustaqilligini ta'minlash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga erishishdi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023 yil yangi tahrir).
2. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ish yuritish kodeksi (MSIYK).
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (MJtK).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF-4820-son Farmoni.
6. Mamasiddiqov M.M. – Ma'muriy huquq. Toshkent.
7. Karimova, M. Inson huquqlarini sud orqali himoya qilish: nazariya va amaliyot. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
8. Grundgesetz Verwaltungsgerichtsordnung
9. Council of Europe – Administrative Justice